https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Isoqova Dilsevar Asliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti bilogiya yo‘nalishi talabasi
dilsevarisoqova347@gmail.com

KOVUL (CAPPARIS SPINOSA) O‘SIMLIGINING BIOLOGIK, EKOLOGIK VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Bugungi kunda dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo‘lgan yovvoyi o‘simliklarni o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shunday o‘simliklardan biri — **kovul (Capparis spinosa)** o‘simligi bo‘lib, u qurg‘oqchil hududlarda keng tarqalgan, yuqori biologik moslashuvchanlikka ega va xalq tabobati hamda oziq-ovqat sanoatida qadimdan foydalanib kelinadi. Ushbu maqolada kovul o‘simligining botanik xususiyatlari, ekologik moslashuvi, kimyoviy tarkibi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kovul o‘simligi, Capparis spinosa, flavonoidlar, efir moylar, alkaloidlar, qandli diabet, immunitet, tuzlamalar, Kavkaz, Shimoliy Afrika.

Аннотация. В настоящее время изучение дикорастущих растений, обладающих лекарственным и пищевым значением, приобретает важное научное и практическое значение. Одним из таких растений является ковул (Capparis spinosa), который широко распространён в засушливых регионах, отличается высокой биологической адаптивностью и издавна используется в народной медицине и пищевой промышленности. В данной статье освещаются ботанические особенности растения ковул, его экологическая адаптация, химический состав и практическое значение.

Ключевые слова: ковул, *Capparis spinosa*, флавоноиды, эфирные масла, алкалоиды, сахарный диабет, иммунитет, соленья, Кавказ, Северная Африка.

Abstract. Currently, the study of wild plants with medicinal and nutritional value is of significant scientific and practical importance. One of such plants is **caper (Capparis spinosa)**, which is widely distributed in arid regions,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

characterized by high biological adaptability, and has long been used in traditional medicine and the food industry. This article highlights the botanical characteristics of the caper plant, its ecological adaptation, chemical composition, and practical significance.

Keywords: caper plant, *Capparis spinosa*, flavonoids, essential oils, alkaloids, diabetes mellitus, immunity, pickled products, Caucasus, North Africa.

Kirish qism. *Kovul o‘simligining sistematik o‘rni va tarqalishi.*

Kovul o‘simligi **kovuldoshlar (Capparaceae)** oilasiga mansub bo‘lib, ilmiy nomi ***Capparis spinosa L.*** hisoblanadi. U asosan O‘rta Yer dengizi mintaqasi, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq hududlarida ko‘p turlari tarqalgan. O‘zbekiston hududida esa kovul cho‘l, adir va tog‘ oldi zonalarida, toshloq va qumli yerlarda yovvoyi holda o‘sadigan o‘simlikdir. Bu o‘simlik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Kiprda hamda Gretsiya mamlakatlarida madaniylashtirilgan bo‘lib, landlashaftlar bezagi hisoblanishi aniqlangan. Kovul – bu o‘simlik nomi Erondagi Dashti-Kavir cho‘lining nomi bilan bog’liqdir. Kovul bu cho‘l hududlarida eng ko‘p tarqalgan o‘simlik hisoblanadi. Hindular bu o‘simlikni kobra va kabarra nomlari bilan atashadi.

Asosiy qism. *Botanik va morfologik tavsifi.*

Kovul — ko‘p yillik, past bo‘yli, yoyilib o‘suvchi butasimon o‘simlik hisoblanadi. Uning ildiz tizimi kuchli rivojlangan, chuqur qatlamlarga kirib boradi. Bu xususiyat o‘simlikning qurg‘oqchilikka chidamliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu o‘simlik ko‘p miqdorda suv talab qilmaydigan o‘simlik hisoblanadi. Fotosintez jarayonida suvni tejovchi mexanizmlarga ega, barglari orqali namning ortiqcha bug‘lanishini kamaytirib turadi. Shu sababli kovul cho‘l ekotizimlarida muhim o‘rin tutadigan o‘simlik turi hisoblanadi. Tuproq tanlamaydigan o‘simlik, har qanday hududlarda bemalol o‘saveradi. Poyalari yerga yoyilib, ayrim hollarda tikanlar bilan qoplangan bo‘lib o‘sadi. Barglari oddiy, tuxumsimon yoki yumaloq shaklda bo‘ladi, sersuv va qalin tuzilishga ega. Gullari yirik, oq yoki och pushti rangda, uzun binafsha rang changchilari bilan ajralib turadi. Mevasi rezavor meva

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hisoblanib, ichida ko‘plab urug‘lar saqlaydi. Mevalari etdor, uzunligi 2 sm gacha boradi. Iyul- avgust oylarida urug’lari pishib yetiladi. Kovul shu bilan birga dorivor o‘simlik ham hisoblanadi. Mevalari tarkibida saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar, 32,9 foiz uglevodlar, 150 mg askorbin kislota, 3,75 foiz moy, ildiz po‘stlog’ida staxidrin alkaloidi mavjuddir. Bir dona mevasi tarkibida o‘rtacha 600 dan ortiq urug’lari mavjuddir.

Kovul tuproq eroziyasini kamaytirishda, cho‘l hududlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega o‘simlik. Shu bilan birga, u asalarilar uchun yaxshi nektar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Kovulni madaniy holda yetishtirish orqali dorivor xomashyo va eksportbop mahsulot olish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari u oziq- ovqat sanoatida ham keng foydalaniladi.



1-rasm. Kovul mevasi

Kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari

Ilmiy tadqiqotlar natijasida kovul o‘simligi tarkibida biologik faol moddalarning ko‘pligi aniqlangan. Kovulning g‘unchalari, barglari va ildiz po‘stlog‘ida quyidagi biologik faol moddalar aniqlangan:

- vitamin C,
- flavonoidlar,
- alkaloidlar,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- glikozidlar,
- efir moylari mavjud.

Xalq tabobatida kovul yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, siydik haydovchi va immunitetni mustahkamlovchi vosita sifatida qo‘llanadi. Ayniqsa, jigar, oshqozon-ichak kasalliklari, revmatizm va qandli diabetda foydali hisoblanadi. Ildizidining yangi shilingan po‘stlog‘i og‘rigan tishga bosilganda yaxshi ko‘rsatadi. Ba’zida ochiq yiringli yaralarga qo‘yilganda antiseptik ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Kovul o‘simligining bunday foydali xususiyatlaridan asosan Xitoyda keng foydalaniladi. Bu o‘simlikdan turli xil kasalliklarga qarshi dorilar tayyorlasa bo‘ladi. Tarkibidagi vitamin C odam immun sistemasini mustahkamlaydi. Qon tarkibidagi leykositlar faolligini oshiradi. Shu bilan birga qon tomirlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Organizmni turli infeksion kasalliklardan himoya qiladi. Terini elastikligini saqlab turadi. Bu o‘simlikdan qarishga qarshi preparatlar tayyorlash texnologiyalari mavjuddir. Kovul terilardagi o‘lik hujayralarni faoliyatini sezilarli darajada qayta tiklash xususiyatiga ega o‘simlik hisoblanadi.

Bundan tashqari o‘simlik tarkibidagi efir moylari antibakterial ta’sir ko‘rsatadi. Yallig’lanish jarayonlarini keskin kamaytirish xususiyatiga ega. Qon aylanishini normallashtiradi. Stress va asabiylikni yo‘qotib, asab tolalarni tinchlantiradi. Qonda shakar miqdorini me`yorlashtirib turadi. Shunchaki yo‘l chetlarida o‘sib yotgan o‘simlik tabiiy dorivor mahsulotdir. Bu o‘simlik doroxonalardagi kimyoviy moddalardan anchagina foydaliroq va tabiiy mahsulotdir.

Oziq-ovqat va xo‘jalikdagi ahamiyati

Kovulning ochilmagan g‘unchalari **kaperslar** nomi bilan mashhur bo‘lib, tuzlab yoki marinad qilib iste’mol qilinadi. Ular xalqaro oshxonalarda salatlar, souslar, baliq va go‘shtli taomlarga qo‘shilib iste`mol qilinadi. Kaperslar ishtahani ochuvchi va hazm jarayonini yaxshilovchi xususiyatga ega o‘simliklardir. Bu o‘simlik taomga o‘tkir, yoqimli hid va o‘ziga xos maza bag’ishlaydi. Turli konservalar tayyorlashda ishlatiladi. Sababi mahsulotlarni uzoq muddat saqlash

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

vazifasini bajaradi.

Oziq- ovqatdagi yog'larning oksidlanishini sekinlashtiradi. Kovul mevalarini tabiiy biologik qo‘shimcha sifatida har qanday ovqat bilan iste`mol qilish mumkin. Ammo, shuni ham eslatib o‘tish kerakki, tarkibida efir moylari bo‘lganligi sababli haddan oshiq iste`mol qilish achchiqlik va oshqozon bezovtaligini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytsa bo‘ladiki, kovul o‘simligi (*Capparis spinosa*) biologik, dorivor va oziq-ovqat jihatidan yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan noyob o‘simliklardan biri hisoblanadi. Uning tabiiy sharoitlarga, ayniqsa qurg‘oqchilik va sho‘rxok tuproqlarga moslashuvchanligi kovul o‘simligini ekologik barqarorlikni ta’minlovchi muhim o‘simlik sifatida namoyon etadi. Chuqur ildiz tizimi tufayli u tuproq erroziyasining oldini oladi va degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklashda samarali vosita bo‘la oladi.

Kovulning kimyoviy tarkibi flavonoidlar, efir moylari, vitaminlar va mineral moddalarga boy bo‘lib, bu uning keng dorivor xususiyatlarini belgilab beradi. Bu moddalar organizmda yallig‘lanishga qarshi, antibakterial, antioksidant va metabolik jarayonlarni me’yorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan xususiyatga egadir. Xalq tabobatida kovul ildizi, po‘stlog‘i, bargi va mevasidan turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelinadi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham uning qandli diabet, yurak-qon tomir va hazm tizimi kasalliklarida yordamchi terapevtik vosita sifatidagi ahamiyatini tasdiqlamoqda.

Oziq-ovqat sanoatida kovulning ochilmagan gul kurtaklari — kaperslar — yuqori gastronomik qiymatga ega mahsulotdir. Ular taomlarga o‘ziga xos ta’m berish bilan birga, ovqat hazmini yaxshilaydi, ishtahani ochadi va tabiiy konservant vazifasini o‘taydi. Bu jihat kovulni sog‘lom va funksional ovqatlanish tizimida muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, kovul yetishtirish kam xarajat talab qiluvchi, lekin yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishlardan biri. Uning farmatsevtika, oziq-ovqat va kosmetika sanoatida qayta ishlanishi mahalliy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xomashyodan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning iqlim sharoiti kovul yetishtirish uchun qulay bo‘lib, bu o‘simlik asosida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish istiqbollari keng.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, kovul o‘simligi tabiiy resurs sifatida nafaqat sog‘liqni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, balki ekologik muammolarni yumshatish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishda ham muhim ahamiyatga ega. Uni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy holda ko‘paytirish va kompleks tarzda qayta ishlash kelajakda barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Kovul” maqolasi. — Toshkent, 2019.
2. Rahmonov Q., To‘raev A. Dorivor o‘simliklar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Ahmed A., Salih M. “Pharmacological properties of Capparis spinosa”. Journal of Medicinal Plants, 2016.
4. Mamatqulov M. O‘simliklar biokimyosi. — Samarqand, 2017.
5. Xolmatov H., Ahmedov O‘. Farmakognoziya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2020.
6. KOVUL O‘SIMLIGI. Rustam Muradov Zakirjonovich Usmonova Marjona Botirali qizi2 1-2 “O‘rmonchilik, dorivor o‘simliklar va manzarali bog‘dorchilik” kafedrasi o'qituvchisi.